


## SAMARQAND VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI (2020- yil yanvar-dekabr oylari uchun dastlabki ma'lumot)

Mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o'z ta'sirini o'tkazadi.

2020- yil yanvar-dekabr oylari yakuni bilan viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 1 492,1 mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2019- yilning mos davriga nisbatan 257,8 mln. AQSh dollariga yoki 14,7 %ga kamaydi.

**TASHQI SAVDO  
AYLANMASI  
VA BALANSI**  
(yanvar-  
dekabr, mln.  
AQSh dollari)



*Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasi tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat Tovar nomenklaturasi (keying o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.*

SAMARQAND  
VILOYATI BILAN  
TASHQI SAVDO  
AYLANMASI  
ENG YUQORI  
ULUSHGA EGA  
BO'LGAN  
DAVLATLAR  
(2020- yil  
yanvar-dekabr,  
mln. AQSh  
dollari, ulushi,  
%da)

TSA da eksport hajmi 335,6 mln. AQSh dollariga (15,8 %ga kamaydi) va import hajmi 1 156,5 mln. AQSh dollariga (14,4 %ga kamaydi) yetdi. Hisobot davrida -820,9 mln. AQSh dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi.

Top-10 davlatlar	TSA	Eksport	Import	Ulushi, % da
Xitoy Xalq Respublikasi	307,7	44,1	263,6	20,6
Rossiya Federatsiyasi	242,1	62,2	179,9	16,2
Qozog'iston	146,6	44,6	101,9	9,8
Turkiya	133,6	28,7	104,9	9,0
Yaponiya	60,5	0,2	60,3	4,1
Germaniya	50,7	1,6	49,1	3,4
Sloveniya	37,0	0,0	37,0	2,5
Ukraina	36,5	6,3	30,2	2,4
Tojikiston	34,6	32,6	2,0	2,3
Hindiston	31,8	0,6	31,2	2,1

So'nggi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilishda, eksportni qo'llab-quvvatlash, import o'rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida, eksport tarkibida sezilarli o'zgarishga erishildi.

Samarqand, jahonning 84 dan ortiq mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSA ning nisbatan salmoqli hissasi Xitoy Xalq Respublikasida (20,6 %), Rossiya Federatsiyasida (16,2 %), Qozog'istonda (9,8 %), Turkiyada (9,0 %), Yaponiyada (4,1 %), Germaniyada (3,4 %) va Sloveniyada (2,5 %) qayd etilgan.

Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.

Xususan, qo'shni davlatlar Tojikiston va Qirg'iz Respublikalari bilan TSA da so'nggi yillarda katta o'zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so'nggi uch yilda TSA Tojikiston, Qirg'iz Respublikasi va Turkmaniston bilan tashqi savdo aylanmasi oshgani kuzatilmoqda.

Boshqa davlatlar (qo'shni davlatlardan tashqari) bilan esa, TSA da eng yuqori ulush Xitoy, Rossiya, Turkiya va Yaponiya davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha 30 ta yirik hamkor-davlatlar orasidan beshta davlatda faol tashqi savdo balansi kuzatilgan, xususan, Tojikiston (34,6 mln. AQSh dollari), Qirg'iz Respublikasi (23,6 mln. AQSh dollari), Afg'oniston (16,9 mln. AQSh dollari), Ozarbayjon (13,9 mln. AQSh dollari), Singapur (7,2 mln. AQSh dollari) shular jumlasidandir. Qolgan 25 ta yirik hamkor-davlatlar bilan passiv tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.

SAMARQAND  
VILOYATINING  
YIRIK HAMKOR  
DAVLATLAR  
BILAN TASHQI  
SAVDO  
AYLANMASI  
DINAMIKASI  
(yanvar-dekabr,  
mln. AQSh  
dollari)


Davlatlar	2018- y.	2019- y.	2020- y.
<b>Xitoy Xalq Respublikasi</b>	<b>260,4</b>	<b>369,0</b>	<b>307,7</b>
Eksport	22,9	34,7	44,1
Import	237,5	334,3	263,6
Saldo	-214,6	-299,6	-219,5
<b>Rossiya Federatsiyasi</b>	<b>274,3</b>	<b>307,2</b>	<b>242,1</b>
Eksport	76,2	94,6	62,2
Import	198,1	212,6	179,9
Saldo	-121,9	-118,1	-117,7
<b>Qozog'iston</b>	<b>167,7</b>	<b>179,5</b>	<b>146,6</b>
Eksport	47,1	41,8	44,6
Import	120,5	137,8	101,9
Saldo	-73,4	-96,0	-57,3
<b>Turkiya</b>	<b>152,4</b>	<b>188,3</b>	<b>133,6</b>
Eksport	23,8	41,8	28,7
Import	128,6	146,5	104,9
Saldo	-104,8	-104,7	-76,2
<b>Yaponiya</b>	<b>96,0</b>	<b>82,7</b>	<b>60,5</b>
Eksport	0,6	5,2	0,2
Import	95,4	77,5	60,3
Saldo	-94,7	-72,3	-60,1
<b>Germaniya</b>	<b>120,4</b>	<b>88,3</b>	<b>50,7</b>
Eksport	3,9	5,0	1,6
Import	116,5	83,3	49,1
Saldo	-112,6	-78,3	-47,6
<b>Sloveniya</b>	<b>23,1</b>	<b>17,5</b>	<b>37,0</b>
Eksport	0,0	0,0	0,0
Import	23,1	17,5	37,0
Saldo	-23,1	-17,5	-37,0

SAMARQAND  
VILOYATINING  
YIRIK HAMKOR  
DAVLATLAR  
BILAN TASHQI  
SAVDO  
AYLANMASI  
DINAMIKASI  
(yanvar-dekabr,  
mln. AQSh  
dollari)

Davlatlar	2018- y.	2019- y.	2020- y.
<b>Tojikiston</b>	<b>11,6</b>	<b>24,7</b>	<b>34,6</b>
Eksport	10,3	22,2	32,6
Import	1,3	2,5	2,0
Saldo	9,0	19,8	30,6
<b>Hindiston</b>	<b>32,9</b>	<b>21,9</b>	<b>31,8</b>
Eksport	1,9	0,4	0,6
Import	31,0	21,5	31,2
Saldo	-29,2	-21,1	-30,5
<b>Latviya</b>	<b>44,4</b>	<b>36,5</b>	<b>29,6</b>
Eksport	6,4	2,3	1,2
Import	38,0	34,1	28,4
Saldo	-31,7	-31,8	-27,2
<b>Vengriya</b>	<b>11,7</b>	<b>14,5</b>	<b>27,6</b>
Eksport	0,3	0,2	0,1
Import	11,4	14,3	27,5
Saldo	-11,1	-14,1	-27,4
<b>Litva</b>	<b>19,3</b>	<b>17,8</b>	<b>27,0</b>
Eksport	0,5	3,1	2,2
Import	18,8	14,6	24,9
Saldo	-18,3	-11,5	-22,7
<b>Qirg'iz Respublikasi</b>	<b>11,0</b>	<b>17,0</b>	<b>23,6</b>
Eksport	10,4	15,3	21,5
Import	0,6	1,7	2,1
Saldo	9,8	13,7	19,3
<b>Koreya Respublikasi</b>	<b>23,0</b>	<b>35,6</b>	<b>21,3</b>
Eksport	1,4	1,1	0,5
Import	21,6	34,5	20,8
Saldo	-20,3	-33,4	-20,3

**SAMARQAND VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLAN-MASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-dekabr, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)**

Mamlakatimizda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2020- yil yanvar-dekabr oylarida, viloyat tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 36,1 %ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi 2018- yilga nisbatan ulushi 3,7 %ga oshgan.



Aksincha boshqa xorijiy davlatlarning tashqi savdo aylanmasi esa 2020- yil yanvar- dekabr oylarida 2019- yilning shu davriga nisbatan 1,4 %ga kamaydi va jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 63,9 %ni tashkil etdi.

**SAMARQAND  
VILOYATI  
SHAXAR VA  
TUMANLARNING  
TASHQI SAVDO  
AYLANMASI  
(yanvar-dekabr,  
mln. AQSh  
dollari,  
ulushi, %da)**


Shahar va tumanlar	Tashqi savdo aylanmasi	Eksport	Import	Tashqi savdo aylanmasi ulushi, % da
<b>Jami</b>	<b>1492,1</b>	<b>335,5</b>	<b>1156,5</b>	<b>100,0</b>
Samarqand sh.	684,4	98,0	586,4	45,9
Kattaqo'rg'on sh.	17,9	6,9	11,0	1,2
<i>Tumanlar:</i>				
Bulung'ur	20,0	10,3	9,7	1,3
Jomboy	137,1	30,9	106,1	9,2
Ishtixon	12,8	7,4	5,4	0,9
Kattaqo'rg'on	38,0	14,0	24,0	2,5
Narpay	17,8	7,4	10,3	1,2
Nurobod	36,7	1,8	34,9	2,5
Oqdaryo	40,8	18,6	22,2	2,7
Payariq	15,2	9,1	6,1	1,0
Pastdarg'om	46,7	13,3	33,5	3,1
Paxtachi	24,2	4,6	19,6	1,6
Samarqand	113,6	29,0	84,6	7,6
Toyloq	105,7	20,1	85,6	7,1
Urgut	150,6	48,9	101,7	10,1
Qo'shrabot	3,7	1,3	2,5	0,3

Viloyat tashqi savdo aylanmasining eng yuqori o'rinlarida Samarqand shahri (684,4 mln. AQSH dollari), hamda Urgut (150,6 mln. AQSH dollari), Jomboy (137,1 mln. AQSH dollari), Samarqand (113,6 mln. AQSH dollari) va Toyloq (105,7 mln. AQSH dollari) tumanlarini ko'rishimiz mumkin.

## SAMARQAND VILOYATINING EKSPORTI (2020- yil yanvar-dekabr)

Joriy yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatning eksportyorlari soni 555 tani tashkil etib, ular tomonidan 335,5 mln. AQSh dollari (qimmatbaho metallar eksportidan tashqari) qiymatidagi (2019- yilning mos davriga nisbatan 15,8 %ga kamaydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 96,2 %ni tashkil etib, ular asosan oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (45,3 %), material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari (22,7 %), turli xil tayyor buyumlar (9,3), mashinalar va transport asbob-uskunolari (8,8 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.



XSST  
BO'YICHA  
EKSPORT  
TARKIBI  
(2020-yil  
yanvar-  
dekabr,  
ulushi, %da)





XSST tarkibi	Mln. AQSh dollari			Umumiy hajmga nisbatan, %da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
<b>Jami eksport</b>	<b>335,5</b>	<b>194,4</b>	<b>141,2</b>	<b>100</b>	<b>100</b>	<b>100</b>
shu jumladan:						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	152,1	87,8	64,3	45,3	45,1	45,6
Ichimliklar va tamaki	1,7	1,6	0,1	0,5	0,8	0,1
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	21,4	7,9	13,5	6,4	4,1	9,5
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,5	0,3	0,2	0,2	0,1	0,2
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	6,2	2,7	3,5	1,8	1,4	2,5
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	4,4	3,6	0,7	1,3	1,9	0,5
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	76,0	35,8	40,2	22,7	18,4	28,5
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	29,4	22,5	6,8	8,8	11,6	4,8
Turli xil tayyor buyumlar	31,1	26,8	4,3	9,3	13,8	3,1
Xizmatlar	12,8	5,3	7,4	3,8	2,7	5,3

MDH mamlakatlari va boshqa mamlakatlarga eksportning yo'nalishi bo'yicha farqlanishlar mavjudligi kuzatilmoqda. Xususan, MDH mamlakatlariga eksportning asosiy qismi oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar hissasiga to'g'ri kelmoqda, keyingi o'rinlarda eksport hajmi bo'yicha asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari hamda turli xil tayyor buyumlar xissasiga to'g'ri kelmoqda.

**MDH  
VA BOSHQA  
XORIJIY  
DAVLATLARGA  
TOVAR  
VA XIZMATLAR  
EKSPORTINING  
O'SISH  
SUR'ATLARI  
(2020- yil  
yanvar-  
dekabr)**

XSST tarkibi	2019- yilning yanvar-dekabriga nisbatan, %da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
<b>Jami</b>	<b>84,2</b>	<b>91,2</b>	<b>76,2</b>
shu jumladan:			
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	75,6	86,4	64,5
Ichimliklar va tamaki	84,5	84,4	85,2
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	69,4	74,0	66,9
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	6,1	8,2	4,7
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	7,0 m.	3,5 m.	30,3 m.
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	2,4 m.	3,3 m.	94,8
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	134,5	111,0	165,7
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	102,1	108,7	85,2
Turli xil tayyor buyumlar	103,6	102,0	114,4
Xizmatlar	33,6	36,8	31,6

2020- yil yanvar-dekabr oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, tovarlar va xizmatlar tarkibida sezilarli o'zgarishlar qayd etilmadi, biroq shuni ta'kidlash joizki, 2019- yilning yanvar-dekabriga nisbatan, asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari hamda turli xil tayyor buyumlar, mashinalar va transport asbob-uskunalari, Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar, Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlarda, o'sish kuzatildi.

**EKSPORT TARKIBI  
DINAMIKASI  
(yanvar-dekabr,  
%da)**

XSST tarkibi	2018- y.	2019- y.	2020- y.
<b>Jami</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
shu jumladan:			
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	47,4	50,5	45,3
Ichimliklar va tamaki	0,9	0,5	0,5
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	6,7	7,7	6,4
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,0	2,1	0,2
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,0	0,2	1,8
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	0,7	0,5	1,3
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	14,9	14,2	22,7
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	8,2	7,2	8,8
Turli xil tayyor buyumlar	7,6	7,5	9,3
Xizmatlar	13,6	9,5	3,8


	XSST bo'limi nomi	Mln. AQSh dollari	2019- yilning mos davriga nisbatan, % da
	<b>XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR EKSPORTI TARKIBI (2020- yil yanvar-dekabr)</b>	<b>Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar</b>	
Sabzavotlar va mevalar		120,9	67,6
Hayvonlar uchun ozuqalar (maydalanmagan donlardan tashqari)		17,3	177,8
Sut mahsulotlari va parranda tuxumlari		4,5	127,2
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar		2,9	96,0
Tirik hayvonlar, 03 bo'limga kiritilgan hayvonlardan Tashqari		2,4	7,2 m.
<b>Ichimliklar va tamaki</b>			
Ichimliklar		1,7	84,1
Tamaki va tamaki mahsulotlari		0,02	123,4
<b>Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari</b>			
To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari		16,2	72,2
Moy olinadigan urug'lar va mevalar		3,3	62,1
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari		1,1	43,9
<b>Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar</b>			
O'simlik moylari va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)		6,2	7,0 m.
<b>Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar</b>			
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari		1,7	13,6 m.
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar		1,5	221,1 m.
Birlamchi shakldagi plastmassalar		0,3	2,6 m.
O'g'itlar		0,2	33,4

**XSST BO'LIMI  
BO'YICHA  
AYRIM  
MAHSULOTLAR  
EKSPORTI  
TARKIBI  
(2020- yil  
yanvar-  
dekabr)**

Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari		
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	62,7	153,3
Metallidan tayyorlangan buyumlar	5,7	104,7
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar, boshqa joyda tasniflanmagan	5,0	150,7
Rangli metallar	1,2	23,5
<b>Mashinalar va transport asbob-uskunolari</b>		
Avtomobillar	26,4	104,5
Elektr mashinalari, apparatlar, asboblari va ularning ehtiyot qismlari	1,3	56,5
Aniq sohalarda uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar Metallarni qayta ishlash mashinalari	0,8	4,6 m.
Energiya generatori mashinalari va asbob uskunalar	0,6	102,8
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	0,3	80,7
<b>Turli xil tayyor buyumlar</b>		
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	22,2	90,3
Poyabzal	6,7	155,7
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya, isitish va yoritish uskunalar uchun armatura va maxkamlash moslamalari, boshqa joyda tasniflanmagan	1,6	2,6 m.
Har xil tayyor buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	0,5	124,8
<b>Xizmatlar</b>		
Transport xizmatlari	4,5	37,9
Qurilish xizmatlari	4,9	33,2 m.
Moliyaviy xizmatlari	2,0	72,3

So'nggi ikki yilda MDH mamlakatlariga eksport hajmi oshdi va ularning jami eksportdagi ulushi 2019- yil yanvar-dekabrda 53,5 %dan 2020- yil yanvar-dekabrda 57,9 %ga yetdi. Mos ravishda boshqa mamlakatlarning jami eksportdagi ulushi 42,1 %ni tashkil etdi.

**MDH  
VA BOSHQA  
DAVLATLARGA  
TOVAR  
VA XIZMATLAR  
EKSPORTI  
HAJMLARI  
DINAMIKASI  
(yanvar-dekabr,  
mln. AQSh  
dollari,  
ulushi, %da)**



2020- yilning yanvar-dekabr oylari yakunida tovar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Rossiya Federatsiyasi (eksport umumiy hajmining 18,5 %), Qozog'iston (13,3 %), Xitoy Xalq Respublikasi (13,2 %), Tojikiston (9,7 %), Turkiya (8,6 %), Qirg'iz Respublikasi (6,4 %) va Afg'oniston (5,0 %) davlatlari saqlanib qolmoqda hamda ularning jami eksportdagi ulushi 74,6 foizni tashkil etmoqda.

Tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlardan Rossiya Federatsiyasi eksportdagi ulushi bo'yicha peshqadam bo'lib kelmoqda.

Hamkor mamlakatlarning tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha geografiyasi 2019- yilning mos davriga nisbatan 129 ta davlatdan 65 ta davlatga kamaygan.

VILOYAT  
EKSPORTIDA  
ASOSIY HAMKOR  
DAVLATLAR-  
NING ULUSHI  
(2020- yil  
yanvar-dekabr,  
% da)



SAMARQAND  
VILOYATINING  
ASOSIY HAMKOR  
DAVLATLARGA  
AMALGA  
OSHIRGAN  
EKSPORTI HAJMI  
VA O'SISH  
SUR`ATLARI  
(yanvar-dekabr)

Davlatlar	Mln.AQSH dollari		O'zgarish sur'ati, %da		O'rni	
	2019- y.	2020- y.	2019- y.	2020- y.	2019- y.	2020- y.
Rossiya Federatsiyasi	94,6	62,2	124,1	65,8	1	1
Qozog'iston	41,8	44,6	88,6	106,8	3	2
Xitoy Xalq Respublikasi	34,7	44,1	151,6	127,2	4	3
Tojikiston	22,2	32,6	2,2 m.	146,8	5	4
Turkiya	41,8	28,7	175,6	68,7	2	5
Qirg'iz Respublikasi	15,3	21,5	147,4	140,2	7	6
Afg'oniston	13,9	16,7	57,7	119,6	8	7
Ozərbayjon	12,9	13,2	135,7	102,3	9	8
Belarus Respublikasi	9,0	8,5	139,7	94,6	12	9
Singapur	3,7	6,8	71,1	185,8	20	10
Ukraina	9,1	6,3	151,1	69,3	11	11
Iroq	9,7	4,8	2,2 m.	49,0	10	12
BAA	8,6	4,7	93,2	55,2	13	13
Turkmaniston	7,2	4,6	2,6 m.	63,6	14	14
Gruziya	3,0	3,9	101,7	130,0	23	15
Eron	18,3	3,7	187,4	20,3	6	16
Misir	0,0	3,2	176,3	0,0	78	17
AQSH	4,9	2,8	140,4	55,9	18	18
Litva	3,1	2,2	6,2 m.	68,5	22	19
Polsha	3,7	1,9	3,4 m.	51,9	19	20

Ushbu mamlakatlarga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar, asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari hamda turli xil tayyor buyumlar kiradi.

XSST tarkibi	Rossiya Federatsiyasi		Qozog'iston		Xitoy Xalq Respublikasi		Tojikiston	
	2019- y.	2020- y.	2019- y.	2020- y.	2019- y.	2020- y.	2019- y.	2020- y.
<b>Jami eksport</b>	<b>94,6</b>	<b>62,2</b>	<b>41,8</b>	<b>44,6</b>	<b>34,7</b>	<b>44,1</b>	<b>22,2</b>	<b>32,6</b>
shu jumladan:								
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	43,4	29,5	16,5	14,7	23,9	23,9	14,2	22,6
Ichimliklar va tamaki	1,3	0,4	0,4	0,9	0,1	0,0	0,1	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	4,2	3,0	2,9	2,3	7,0	7,6	0,1	0,1
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	3,4	0,3	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,8	1,8
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	0,0	0,0	0,4	1,1	0,0	0,0	0,6	1,3
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	5,4	6,5	6,0	5,8	3,4	12,7	3,1	3,8
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	1,4	0,2	13,7	16,8	0,0	0,0	1,8	1,3
Turli xil tayyor buyumlar	21,8	17,2	1,8	2,9	0,0	0,0	1,3	1,7
Xizmatlar	13,7	5,1	0,3	0,0	0,3	0,0	0,3	0,0

**VILOYATNING AYRIM DAVLATLAR BILAN EKSPORT TARKIBI (2020- yil yanvar-dekabr, mln. AQSh dollarida)**



**MEVA-  
SABZAVOT  
MAHSULOT-  
LARI EKSPORTI**

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan 113,8 mln. AQSh dollar qiymatli 144,4 ming tonnadan ziyod meva-sabzavot eksport qilingan. Bunda 2019- yilning mos davriga nisbatan 46,7 mln. AQSh dollariga pastlashish kuzatilib, 29,1 %ga kamaydi. Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 44,4 mln. AQSh dollariga teng 81,4 ming tonna sabzavot, shuningdek 31,9 mln. AQSh dollari qiymatidagi 28,5 ming tonna meva va rezavorlar eksport qilindi.

Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois, eksport qilinayotgan meva va sabzavotlarning ulushi 33,9 %ni tashkil etdi.

**MEVA-  
SABZAVOT  
MAHSULOT-  
LARI EKSPORTI  
(2020- yil  
yanvar-  
dekabr,  
mln. AQSh  
dollari)**



Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Xitoy xalq Respublikasi (20,8 %), Rossiya Federatsiyasi (19,7 %), Qozog'iston (10,7 %) va Turkiya (9,9 %) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

MEVA -  
SABZAVOT  
MAHSULOT-  
LARINING  
EKSPORT  
GEOGRAFIYASI  
(yanvar-  
dekabr)

Davlatlar	2019- yil			2020- yil		
	ming tonna	mln. AQSh dollari	ulushi*, % da	ming tonna	mln. AQSh dollari	ulushi*, % da
Xitoy Xalq Respublikasi	23,3	23,6	14,7	30,8	23,7	20,8
Rossiya Federatsiyasi	29,3	25,4	15,9	24,0	22,4	19,7
Qozog'iston	38,1	16,5	10,3	25,2	12,1	10,7
Turkiya	39,5	25,3	15,8	8,8	11,3	9,9
Belarus Respublikasi	8,3	8,0	5,0	6,8	7,4	6,5
Ukraina	13,8	7,6	4,7	6,6	5,3	4,7
Ozərbayjon	4,1	4,9	3,0	3,3	4,2	3,7
Iroq	11,3	7,0	4,3	12,5	3,8	3,3
Gruziya	7,0	2,9	1,8	4,4	3,6	3,2
Turkmaniston	18,2	6,0	3,8	8,0	3,1	2,7
AQSH	0,8	2,1	1,3	0,8	2,2	2,0
BAA	5,1	6,3	3,9	1,7	2,2	1,9
Pokiston	2,0	1,2	0,7	0,7	1,6	1,4
Eron	9,1	6,9	4,3	2,1	1,5	1,3
Germaniya	0,6	2,1	1,3	0,4	1,4	1,2
Litva	2,2	2,0	1,2	1,0	1,3	1,1
Boshqa davlatlar	14,7	12,7	7,9	7,3	6,7	5,9

\*-qiymat ifodasidan

	Hudud nomi	2019- yil yanvar- dekabr	2020- yil yanvar- dekabr	Jamiga nisbatan ulushi, %da	o'zgarish sur'ati, %da
<b>SAMARQAND VILOYATI SHAHAR VA TUMANLARIDA AMALGA OSHIRILGAN EKSPORT HAJMI (yanvar- dekabr, mln. AQSh dollari)</b>	<b>Samarqand viloyati</b>	<b>398,5</b>	<b>335,5</b>	<b>100,0</b>	<b>84,2</b>
	<i>shaharlar</i>				
	Samarqand	138,7	98,0	29,19	70,6
	Kattaqo'rg'on	8,5	6,9	2,06	81,4
	<i>tumanlar</i>				
	Bulung'ur	25,9	10,3	3,07	39,8
	Jomboy	28,2	30,9	9,22	109,7
	Ishtixon	12,2	7,4	2,21	61,1
	Kattaqo'rg'on	16,8	14,0	4,18	83,7
	Narpay	5,4	7,4	2,21	138,3
	Nurobod	4,9	1,8	0,54	37,3
	Oqdaryo	16,7	18,6	5,53	110,8
	Payariq	9,7	9,1	2,72	94,1
	Pastdarg'om	21,7	13,3	3,95	61,0
	Paxtachi	3,7	4,6	1,36	124,7
	Samarqand	38,3	29,0	8,64	75,7
	Toyloq	16,5	20,1	5,98	121,6
	Urgut	49,6	48,9	14,58	98,7
	Qo'shrabot	1,6	1,3	0,38	80,1

**TO'QIMACHILIK  
MAHSULOTLARI  
EKSPORTI**

To'qimachilik mahsulotlari eksporti hajmining oshishi bevosita paxta xomashyosi o'rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo'shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlarning natijasi ekanini ko'rish mumkin. Jumladan, joriy yilda 93,4 mln. AQSh dollarlik to'qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning 27,8 %ini tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan 26,1 %ga o'sdi.

Eksport qilingan to'qimachilik mahsulotlari tarkibida gilamlar (29,5 %), tayyor trikotaj va tikuvchilik kiyimlari (22,1 %) va paxtadan yigirilgan ip (26,0 %) asosiy ulushni egallagan. Yil boshidan 104 turdagi to'qimachilik mahsulotlari dunyoning 28 ta davlatiga eksport qilindi.

**TO'QIMACHILIK  
MAHSULOTLARI  
EKSPORTI  
DINAMIKASI  
(yanvar-  
dekabr,  
mln. AQSh  
dollari)**

Tovar nomi	2018- y.	2019- y.	2020- y.
Gilamlar	29,0	29,8	27,5
Paxtadan yigirilgan ip	3,3	7,1	24,3
Tayyor trikotaj va tikuvchilik kiyimlari	21,3	24,6	20,6
Ipak va ipak mahsulotlari	7,0	10,6	12,0
Paxtadan gazlamalar	0,2	0,0	3,6
Boshqa to'qimachilik mahsulotlari	0,8	2,0	5,3

Mamlakatimizning to'qimachilik sanoatini diversifikatsiya qilish va tayyor mahsulotlar eksportini rag'batlantirish borasidagi amaliy ishlari natijasida, viloyatimizning ushbu sohadagi salohiyati oshib bormoqda.

To'qimachilik mahsulotlarining eng katta ulushi Rossiya Federatsiyasi (22,2 mln. AQSh dollari – 23,8 %), Xitoy Xalq Respublikasi (18,2 mln. AQSh dollari – 19,4 %) va Turkiya (13,1 mln. AQSh dollari – 14, 0%) davlatlari hissasiga to'g'ri keldi.


Davlatlar	2018- y.	2019- y.	2020- y.
Rossiya Federatsiyasi	23,6	26,9	22,2
Xitoy Xalq Respublikasi	4,2	8,4	18,2
Turkiya	3,1	5,4	13,1
Qirg'iz Respublikasi	8,0	9,1	12,5
Ozarbajon	4,2	6,2	6,8
Qozog'iston	4,8	4,1	4,1
Afg'oniston	5,3	4,2	3,8
Misr	0,0	0,0	3,2
Eron	2,9	3,6	2,2
Polsha	0,5	1,8	1,4
BAA	0,9	0,9	1,2
Tojikiston	1,5	1,3	0,9
Vetnam	0,0	0,0	0,8
Izroil	0,4	0,5	0,7
Italiya	0,0	0,0	0,5
Ukraina	0,3	0,5	0,4
Singapur	0,1	0,0	0,3
Turkmaniston	0,1	0,3	0,3
Maldova Respublikasi	0,0	0,1	0,2
AQSH	0,4	0,1	0,2

DAVLATLAR  
KESIMIDA  
TO'QIMACHILIK  
MAHSULOTLARI  
EKSPORTI  
DINAMIKASI  
(yanvar-dekabr,  
mln. AQSh  
dollari)

## SAMARQAND VILOYATINING IMPORTI (2020- yil yanvar-dekabr)

2020- yil yanvar-dekabr oylarida import hajmi 1 156,5 mln. AQSh dollarini va 2019- yilning mos davriga nisbatan 85,6 %ni tashkil etdi.

Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalari (33,1 %), kimyoviy vositalar (28,0 %) hamda asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari (19,1 %) hisobiga to'g'ri keldi.



XSST BO'LIMI  
BO'YICHA  
IMPORT  
TARKIBI  
(2020- yil  
yanvar-  
dekabr, ulushi,  
%da)



Tovar va xizmatlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2020- yilning yanvar-dekabrda import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 192,5 mln. AQSh dollariga kamaydi va 1 154,3 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 2,2 mln. AQSh dollariga yetdi.

**MDH  
VA BOSHQA  
XORIJIY  
DAVLATLARDAN  
IMPORT TARKIBI  
(2020- yil  
yanvar-  
dekabr)**

XSST tarkibi	Mln. AQSh dollari			Umumiy hajmga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
<b>Jami import</b>	<b>1 156,5</b>	<b>344,1</b>	<b>812,5</b>	<b>100</b>	<b>100</b>	<b>100</b>
shu jumladan:						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	99,2	64,7	34,5	8,6	18,8	4,3
Ichimliklar va tamaki	0,2	0,2	0,0	0,0	0,1	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	48,6	34,0	14,6	4,2	9,9	1,8
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	23,2	22,4	0,8	2,0	6,5	0,1
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	19,8	17,9	2,0	1,7	5,2	0,2
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	323,7	74,1	249,6	28,0	21,5	30,7
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	220,5	101,7	118,8	19,1	29,6	14,6
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	383,1	24,6	358,5	33,1	7,2	44,1
Turli xil tayyor buyumlar	35,9	4,3	31,7	3,1	1,2	3,9
Xizmatlar	2,2	0,2	2,0	0,2	0,1	0,3

Importning eng katta ulushi, jumladan, asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari (29,6 %), kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (21,5 %) hamda oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (18,8 %) MDH mamlakatlariga to'g'ri keladi, boshqa xorijiy mamlakatlarga esa eng katta ulush mashinalar va transport asbob-uskunalari (44,1 %) va kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (30,7 %) hissasiga to'g'ri keladi.

**MDH VA  
BOSHQA  
XORIJIY  
DAVLATLARDAN  
IMPORTNING  
O'SISH  
SUR'ATLARI  
(2020- yil  
yanvar-  
dekabr)**

XSST tarkibi	2019- yil yanvar-dekabriga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
<b>Jami</b>	<b>85,6</b>	<b>87,4</b>	<b>84,8</b>
<b>shu jumladan:</b>			
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	105,1	131,5	76,4
Ichimliklar va tamaki	5,9 m.	-	2,5
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	62,0	54,5	90,8
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	173,7	176,3	121,6
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	100,6	114,1	48,4
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	176,5	2,1 m.	167,7
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	70,3	74,2	67,3
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	64,1	32,5	68,7
Turli xil tayyor buyumlar	78,0	76,9	78,2
Xizmatlar	48,9	32,2	51,6

Joriy davrda import qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibi tahlili shuni ko'rsatdiki, 2018- yilning mos davriga nisbatan kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar ulushi 13,3 %dan 28,0 %gacha o'sdi, ammo mashinalar va transport asbob-uskunalari 49,1 %dan 33,1 %ga, nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari importining ulushi esa 6,2 %dan 4,2 %ga kamaydi.



**IMPORT TARKIBI  
DINAMIKASI  
(2020- yil  
yanvar-dekabr,  
ulushi, % da)**

XSST tarkibi	2018- y.	2019- y.	2020- y.
<b>Jami</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<b>shu jumladan:</b>			
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	9,0	7,0	8,6
Ichimliklar va tamaki	1,0	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	6,2	5,8	4,2
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,5	1,0	2,0
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lar), yog'lar va mumlar	2,0	1,5	1,7
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	13,3	13,6	28,0
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	16,8	23,2	19,1
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	49,1	44,2	33,1
Turli xil tayyor buyumlar	1,8	3,4	3,1
Xizmatlar	0,3	0,3	0,2

**XSTT BO'YICHA  
IMPORT  
QILINGAN  
AYRIM TURDAGI  
MAHSULOTLAR  
TARKIBI  
(2020- yil  
yanvar-dekabr  
2019- yil  
yanvar-  
dekabriga  
nisbatan)**

Mahsulot nomi	Mln. AQSh dollari	o'zgarish sura'tlari, % da
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar</b>		
Hayvonlar uchun ozuqalar (maydalanmagan donlardan tashqari)	33,2	113,0
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	35,4	138,8
Trik hayvonlar	8,9	86,7
Sabzavotlar va mevalar	5,4	69,8
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	3,2	35,7
<b>Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari</b>		
Probka va yog'och-taxtalar	17,5	99,2
Moy olinadigan urug'lar va mevalar	14,8	50,5
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	6,0	70,6
Tabiiy kauchuk	6,0	122,8
O'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo	2,2	14,5
<b>Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar</b>		
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	21,4	170,6
Ko'mir, koks va briketlar	1,3	163,9


**XSTT BO'YICHA  
IMPORT  
QILINGAN  
AYRIM TURDAGI  
MAHSULOTLAR  
TARKIBI  
(2020- yil  
yanvar-dekabr  
2019- yil yanvar-  
dekabriga  
nisbatan)**

Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	Mln. AQSh dollari	o'zgarish sura'tlari, % da
O'simlik moylari va yog'lari	18,6	159,8
Hayvon va o'simlik moylari va yog'lari	1,2	14,6
<b>Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar</b>		
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	246,6	2,5 m.
Birlamchi shakldagi plastmassalar	38,6	93,7
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	14,6	107,6
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	7,0	90,6
Organik kimyo moddalari	5,9	74,2
<b>Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari</b>		
Cho'yan va po'lat	108,5	65,9
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	42,8	85,0
Rezina buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	26,4	64,7
Metaldan tayyorlangan buyumlar	14,3	81,7
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar	9,2	67,6
<b>Mashinalar va transport asbob-uskunolari</b>		
Avtomobillar	145,0	54,8
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	121,5	59,8
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	81,0	99,0
Elektr mashinalari, apparatlar, asboblari va ularning ehtiyot qismlari	16,2	84,8
Metallarni qayta ishlash mashinalari	11,1	53,7
<b>Turli xil tayyor buyumlar</b>		
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya isitish va yoritish uskunolari uchun armatura va mahkamlash moslamalari	17,4	60,2
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	9,0	156,5
Har xil tayyor buyumlar	5,8	94,5
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari, matraslar va mebel uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga o'xshash mahsulotlar	1,8	68,1
Poyabzal	1,3	83,8
<b>Xizmatlar</b>		
Transport xizmatlari	2,1	80,4

Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar importi hajmlarining ko'payishiga donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar (38,8 %ga), hayvonlar uchun ozuqalar (maydalanmagan donlardan tashqari) (13,0 %ga) hamda go'sht va go'sht mahsulotlari (10,2 martaga) importining ko'payishiga ta'sir qilgan.

Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar importi ko'payishiga esa, tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari (2,5 martaga) hamda boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar (7,6 %ga) importining ko'payganligi bevosita ta'sir etgan.

MDH  
VA BOSHQA  
XORIJIY  
DAVLATLARDAN  
TOVAR  
VA XIZMATLAR  
IMPORTI  
HAJMLARI  
DINAMIKASI  
(yanvar-dekabr,  
mln. AQSh  
dollari,  
ulushi % da)



Hisobot davri yakunlariga ko'ra, import bo'yicha hamkor davlatlar orasida Xitoy Xalq Respublikasi umumiy import hajmida 22,8 % ulushi bilan Rossiya Federatsiyasini (15,6 %) ortda qoldirgan holda, birinchi o'rinni egalladi.

TOVAR  
VA XIZMATLAR  
IMPORTIDAGI  
YIGIRMATA YIRIK  
HAMKOR  
DAVLATLAR  
(yanvar-dekabr)

Davlatlar	Mln. AQSH dollari		O'zgarish sur'ati, % da		O'rni	
	2019- y.	2020- y.	2019- y.	2020- y.	2019- y.	2020- y.
Xitoy Xalq Respublikasi	334,3	263,6	140,8	78,8	1	1
Rossiya Federatsiyasi	212,6	179,9	107,3	84,6	2	2
Turkiya	146,5	104,9	113,9	71,6	3	3
Qozog'iston	137,8	101,9	114,3	74,0	4	4
Yaponiya	77,5	60,3	81,3	77,8	6	5
Germaniya	83,3	49,1	71,5	59,0	5	6
Sloveniya	17,5	37,0	75,9	2,1 m.	13	7
Hindiston	21,5	31,2	69,3	145,2	10	8
Ukraina	15,3	30,2	71,9	196,7	14	9
Latviya	34,1	28,4	89,7	83,3	8	10
Vengriya	14,3	27,5	125,2	192,4	16	11
Litva	14,6	24,9	77,8	169,8	15	12
Koreya Respublikasi	34,5	20,8	159,4	60,4	7	13
Gruziya	3,9	17,0	87,0	4,4 m.	27	14
Polsha	18,8	16,6	100,9	88,3	11	15
Eron	28,2	15,7	2,1 m.	55,6	9	16
Niderlandiya	18,0	13,7	63,8	76,3	12	17
Turkmaniston	12,6	13,5	2,5 m.	107,2	19	18
Belarus Respublikasi	8,9	12,2	136,8	137,4	22	19
Tayland	1,4	12,0	53,6	8,5 m.	40	20

2020- yil yanvar-dekabr oylari yakuni bo'yicha Samarqand viloyati tomonidan 77 davlat bilan tovarlar va xizmatlar importi amalga oshirildi.


VILOYAT  
IMPORTIDA  
ASOSIY  
HAMKOR  
DAVLATLAR-  
NING ULUSHI  
(2020- yil  
yanvar-dekabr,  
%da)



Yetti yirik hamkor davlatlar (Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Turkiya, Qozog'iston, Yaponiya, Germaniya va Sloveniya) jami importning 68,9 %ini tashkil qiladi, bu 796,8 mln. AQSh dollarini tashkil etadi.

Mamlakatdagi sarmoyaviy muhit yaxshilangani sari va ushbu sohada amalga oshirilgan islohotlar natijasida mashina va uskunalar, shuningdek, ularning qismlari importining o'sishi tabiiydir. Shunday qilib, Xitoy, Rossiya va Turkiya tomonidan kiritilgan katta hajmdagi investitsiyalar natijasida, mahsulotlar importi hajmida ushbu mamlakatlarning yuqori ulushi saqlanib qolmoqda.

	Hudud nomi	2019-yil yanvar- dekabr	2020-yil yanvar- dekabr	Jamiga nisbatan ulushi, % da	o'sish sur'ati, % da
<b>SAMARQAND VILOYATI SHAHAR VA TUMANLARIDA AMALGA OSHIRILGAN IMPORT HAJMI (yanvar- dekabr, mln. AQSh dollari)</b>	<b>Samarqand viloyati</b>	<b>1 351,4</b>	<b>1 156,5</b>	<b>100</b>	<b>85,6</b>
	<i>shaharlar</i>				
	Samarqand	513,7	586,4	50,7	114,2
	Kattaqo'rg'on	7,7	11,0	1,0	142,4
	<i>tumanlar</i>				
	Bulung'ur	15,3	9,7	0,8	63,2
	Jomboy	190,9	106,1	9,2	55,6
	Ishtixon	17,8	5,4	0,5	30,5
	Kattaqo'rg'on	82,1	24,0	2,1	29,2
	Narpay	20,2	10,3	0,9	51,1
	Nurobod	40,7	34,9	3,0	85,8
	Oqdaryo	33,0	22,2	1,9	67,3
	Payariq	11,3	6,1	0,5	53,5
	Pastdarg'om	51,8	33,5	2,9	64,6
	Paxtachi	10,6	19,6	1,7	185,5
	Samarqand	127,4	84,6	7,3	66,4
	Toyloq	93,9	85,6	7,4	91,2
	Urgut	129,1	101,7	8,8	78,8
	Qo'shrabot	0,8	2,5	0,2	3,1 m.



Qurilish materiallari importi, asosan yurtimizda olib borilayotgan bunyodkorlik, keng ko'lamdagi qurilish-rekonstruksiya ishlarini amalga oshirilishiga qaratilmoqda.

Qurilish materiallari	2018- y.	2019- y.	2020- y.
Yog'och va yog'och mahsulotlari	42,3	31,7	26,0
Shisha va shisha buyumlar	3,2	3,9	3,3
Asbest	4,8	14,0	0,9
Sement	2,5	2,6	0,5

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, davlatimiz hamda viloyatimiz tomonidan qurilish mahsulotlari importi o'rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarish hamda ichki bozorni sifatli va arzon qurilish materiallari bilan ta'minlash bo'yicha bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat  
va savdo statistikasi bo'limi**  
Tel.:66-230-45-23

**QURILISH  
MATERIALLARI  
IMPORTI  
DINAMIKASI**  
(yanvar-  
dekabr,  
mln. AQSh  
dollari)